



SCIENCE SHINE ILM NURI

INTERNATIONAL
SCIENTIFIC JOURNAL

XALQARO
ILMIY JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ
НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

Issue **XIII**

ABSTRACT

This international scientific journal is created for new scientific research.


Articles are accepted in the following areas:

- specific and technical directions
- social directions
- directions of philology
- pedagogic directions
- directions of discovery and invention
- natural science majors

Save Earth



May 10
2024



SCIENCE SHINE
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC JOURNAL

ILM NURI
XALQARO
ILMIY JURNALI

СВЕТ НАУКИ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ
НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ



INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SCIENCE SHINE

Issue XIII.

10. 05. 2024



Google
Scholar



zenodo



OpenAIRE



Tahrir kengashi:

**International
scientific journal
"SCIENCE SHINE"**

Bosh muharrir:
D. Z. Olimjonov

**Jurnal bir oyda bir marta
chop etiladi.**

Jurnal

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi

Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2023-
yil 16-fevralda

№063974 sonli
guvohnoma bilan davlat
ro'yxatidan o'tkazilgan

Maqola ko'chirilib
bosilganda, manba
ko'rsatilishi shart

Aloqa uchun:

Telefon: +99899 011 6303

E pochta:

scienceshine@mail.ru

Veb sayt:

<http://science-shine.uz/>

Xurshid Jumanazarov Sirojiddinovich

*O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix
fanlari bo'yicha falsafa doktori.*

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

*Namangan davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq
asoslari" kafedrasini mudiri, falsafa fanlari nomzodi*

Masharipova Gularam Kamilovna

*Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti*

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Impuls universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna

*O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini katta
o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Baymenova Kamshat Saparbayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Bazarov Otabek Odilovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasini dotsenti

G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni
o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi*

Isroilov Ozodbek Saydullajon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Haydarova Umida Xojiakbar qizi

Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasini o'qituvchisi

Nozima Mamadjanova Adxamovna

*Namangan davlat universiteti Ingliz tili fani o'qituvchisi, Pedagogika
fanlari fansafa doktori (PhD)*

O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI MUAMMOLI O'QITISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Dilsora Abulova Tolib qizi

Buxoro davlat universiteti Sport faoliyati va pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Pedagogika kafedrası o'qituvchisi M.Y.Umurova

Annotatsiya: Maqola hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy-madaniy hayotning asosiy talabi, jamiyatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, uning mantiqiy va ijodiy fikr yuritish qobiliyatlarini o'stirish, erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish, hodisa va voqealar mohiyatini chuqur anglash, vaziyatni to'g'ri baholash va xulosa chiqarishga qodir shaxsni tarbiyalashda muammoli o'qitish texnologiyasi dolzarb masala ekanligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muammoli ta'lim, texnologiya, maqsad, vazifalar, metodlar, nazariy va amaliy ahamiyat, pedagogik muammo, funksiya, mohiyat, belgilar, mazmun, interfaol metodlar, dars mashg'uloti, metodika.

Annotation: The article is about socio-economic development, the main requirement of spiritual and cultural life, the all-round development of the young generation growing up in our society, the development of their logical and creative thinking abilities, teaching them to think freely and independently. It is highlighted that problem-based teaching technology is an urgent issue in educating a person who is able to deeply understand the essence of events and events, to correctly assess the situation and draw conclusions.

Key words: problem-based education, technology, goal, tasks, methods, theoretical and practical significance, pedagogical problem, function, essence, signs, content, interactive methods, lesson training, methodology.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida shaxs va jamiyat munosabatlarida uyg'unlikni vujudga keltirish ehtiyoji mavjudligi hamda ta'lim tizimidagi hozirgi tub islohotlarning bugungi kundagi dolzarb muammolari chuqur bilimli, raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash hamda bilim sifatini ob'ektiv baholash maqsadida, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish va ularni amaliyotda tadbiq etishni ta'minlash masalalari kiritilgan. Ta'lim va tarbiya jarayonida bugungi kunda o'qitishning yangi va zamonaviy texnologiyalarini joriy etish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz,

tezda g'oyalarni yaratish orqali qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini topadigan shaxslarni talab qilmoqda. Zamonaviy ta'limda ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlar ta'lim va tarbiyaning yangi texnologiyalaridan foydalanishni ustuvor vazifa sifatida qo'yimoqda. Dunyoda inson kapitaliga bo'lgan ehtiyojning ortishi "aql va mantiq" kategoriyalariga turli madaniy ta'limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, yoshlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o'lchov sifatida qaralishiga sabab bo'lmoqda. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning intellekti va dunyoqarashini rivojlantirishda tabiiy fanlarni o'qitish, integrallashgan interfaol ta'lim texnologiyalari, virtual va eksperimental loyihalarni joriy etish orqali ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali mexanizmlari yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 27-iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida qayd qilinganidek, "Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir".

Bu shartni bajarishning muhim vositasi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlaydigan ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish, o'qitish sifati va samaradorligini oshirish uchun ta'lim- tarbiyaning ilg'or va zamonaviy texnologiyalaridan keng foydalanishdir. Zamonaviy pedagogika fanida mana shunday ilg'or texnologiyalardan biri- muammoli ta'lim texnologiyasidir. Hozirgi ilm-fan, texnika jadal rivojlanayotgan davrda oliy ta'lim muassasalarida samarali o'qitishni tashkil etishda qo'llaniladigan texnologiyalaridan biri-muammoli o'qitish texnologiyasi hisoblanadi. Chunki u talabalarda tafakkur, kreativ yondashuv, ijodiy qobiliyat va faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limdir. Shuning uchun muammoli ta'limning asosiy vazifasi: faol bilim olishga yo'naltirilgan, ijod qilishga undaydigan, muammoga turli xildagi ratsional-evristik yondashuvlarni keltirib chiqaradigan, ilmiy–tadqiqot uslubini shakllantiradigan, idrok qilish qobiliyatlarini o'stiradigan texnologiya sanalib, u ta'lim manfaati uchun xizmat qilishni nazarda tutadi. Muammoli ta'lim, jamiyatning bosh maqsadi

hisoblangan ijodiy faol, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazib, uni faoliyatga, tajribaga tayyorlashga olib keladigan metodlardan biridir.

XX–asrning 90-95-yillarida muammoli ta'lim texnologiyalarining nazariy mazmunini boyitish, yangi talablar asosida ta'lim muassasalarining amaliyotida uni tatbiq qilish borasida o'zbekistonlik pedagoglar, psixologlar, metodistlar ham ma'lum fikrlarni ilgari surdilar. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritib, ijtimoiy-

iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy-madaniy hayot yo'lidan jadallik bilan rivojlantirib, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishga intilib, jahon hamjihatligida o'zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy mavqei kundan-kunga ortib borayotgan bir davrda ta'lim tizimiga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu muammo kelajakda xalq turmushi va iqtisodiyotning barcha jabhalarida, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish; ma'naviy- ma'rifiy sohalarida ishlaydigan xodimlarning bilimdon, ishbilarmon, tashabbuskor bo'lishini taqozo qilgani uchun takomillashib borayapti. Bunday mutaxassislarni esa faqatgina oliy ta'lim muassasalari tayyorlaydi.

Shuni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da bu masala alohida qayd etilib, ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashning yangi strategik shakllari,

usullari, vositalarini yaratishni yo'lga qo'yish, buning uchun esa oliy ta'lim jarayoniga muammoli ta'lim texnologiyasini tatbiq etish lozimligi ko'rsatildi hamda muammoli ta'lim quyidagi masalalarini hal etishga amaliy yordam ko'rsata olishi mumkinligi ta'kidlandi:

bilim oluvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish;

ilmiy bilimlarni qo'lga kiritish va amalda qo'llash usullarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

v) egallagan ilmiy bilimlar yordamida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

g) ijodiy qobiliyat va faoliyatni amalda ko'rsata olish;

Bugungi kun o'qituvchisini va o'quvchilarini mustaqil fikrlashga, izlanishga, ijod qilishga undovchi ta'lim turidan kengroq foydalanishga da'vat etmoqda. Ta'limning hozirgi kundagi bunday turini-muammoli ta'lim texnologiyalari tashkil etmoqda.

Muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llovchi har qanday o'qituvchi, ta'lim beruvchi, avvalo, muammoli ta'limning hal qilishi mumkin bo'lgan vazifalarini bilishi kerak. Bular:

o'quvchilarda fan asoslarini mustaqil egallashning dastlabki malakalarini shakllantirishi;

o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni o'stirishi;

o'quvchi-talabalarning ilmiy bilimlarini muammoli texnologiyalar yordamida o'zlashtirish va amalda qo'llash usullarini joriy etishi;

o'zlashtirilgan bilimlar asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni tarbiyalashi;

o'quvchilarda o'quv muammolarini (yangi mavzu o'quvchi uchun doimo muammo bo'lib tuyuladi) mustaqil yoki qisman o'qituvchi ko'magi yordamida hal qilish ko'nikmalarini hosil qilishi;

ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishi va h.k.

Muammoli ta'limning didaktik xususiyati shundan iboratki, u ta'lim oluvchilarni ta'lim-tarbiya obyektiga emas, subyektiga aylantiradi. Buning uchun muammoli o'qitishning ahamiyatini bilish, ijodiy fikrlash asosini tashkil etadi va pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar hamda ularni yechishga qaratilgan mustaqil faoliyat yordamida ijodiy qobiliyatlarni o'stiradi, o'quv natijalarini maqsadli o'zlashtirish uchun xizmat qiladi. Muammoli ta'limni tashkil qilish jarayonida talabada tadqiqot olib borish, o'quv-biluv faoliyatini yo'lga qo'yish va shu asosda o'quv predmetidagi ma'lumotlarni, xulosalarni mustaqil o'rganish, tahlil qilish, yangi bilimlarni ijodiy o'zlashtirish, xulosa chiqarish kabi sifatlari mujassam bo'lishi talab etiladi.

Muammoli ta'lim ilmiy bilish, pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan bilim oluvchilarning mustaqil faoliyati, ijodiy qobiliyatini o'stirish orqali o'quv natijalarini maqsadli o'zlashtirishga qaratilgan ta'limdir.

Shu nuqtai nazardan O.R.Roziqov, S.Y.Og'ayev, M.H.Mahmudov, B.R.Adizovlarning 1997-yilda "Fan" nashriyotida chop etgan "Didaktika" darsligida muammoli ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi faoliyati kesimida sharhlanib, o'qitish va o'qish ishlarini tashkil qilish andozasini quyidagicha tavsiflaydilar: o'qituvchi savol, topshiriq shaklidagi muammoni bolalar oldiga qo'yadi; bolalar muammoni qabul qilib, unda berilgan faktlarni idrok etishadi va:

o'quvchilarga qo'yilgan muammoni tahlil etish, uni bajarish yo'llari xususida o'ylashni taklif etadi; bolalar muammoni tahlil eta turib, uni bajarish yo'llari to'g'risida o'ylashadi;

o'qituvchi bolalarda qo'yilgan muammoni yechish yo'llari to'g'risida o'z farazlarini aytib berishni so'raydilar; bolalar topshiriqni bajarishga oid o'z farazlarini aytishadi;

o'qituvchi aytilgan farazlardan birini muammoli tahlil qilishni tatbiq etadi; bolalar o'zlari tanlagan usulni qo'llab muammoni hal etishadi;

o'qituvchi muammoning yechimidan xulosa chiqarishni buyuradi; o'quvchilar o'zlaricha xulosa chiqarishadi;

o'qituvchi bolalar chiqargan xulosalarni to'ldiradi, aniqliklar kiritadi; bolalar o'qituvchi izohlarini tinglab o'z xulosalarini boyitishadi;



o'qituvchi chiqarilgan aniq xulosani turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'li bilan o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashni taklif etadi; bolalar o'zlari chiqargan xulosalarni berilgan o'quv holatlariga tatbiq etib, bilimlarini mustahkamlashadi;

o'qituvchi muammoni yechish yo'li bilan chiqarilgan xulosani amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatadi; bolalar o'qituvchi bergan mashq, topshiriqlarni bajarib, bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganib olishadi. Bu o'quv jarayonining xususiyati shundan iboratki, muammoli o'qitishda ta'lim oluvchini mudom ruhlantirib, rag'batlantirib borish lozim, bunda o'qituvchi axborotlarning manbai sifatida boshqaruvchi rolini amalga oshiradi va talabalar bilan hamkorlik qiladi.

Muammoli ta'lim inson tafakkuri, ijodiy qobiliyati, kreativ faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyasi bo'lganligi sababli har qanday inson oldida turgan vazifa va malakalarni hal qilish, yechishga olib keladigan idrok hisoblanib, insonni muammoli holatdan chiqarishga va muammoni yechishga yo'naltiradi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindistonda va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan, Sharqda esa muammoning topshiriqli, bahsli metodlaridan keng foydalanilgan.

Hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy-madaniy hayotning asosiy talabi, jamiyatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, uning mantiqiy va ijodiy fikr yuritish qobiliyatlarini o'stirish, erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish, hodisa va voqealar mohiyatini chuqur anglash, vaziyatni to'g'ri baholash va xulosa chiqarishga qodir shaxsni tarbiyalashdan iborat ekan, muammoli o'qitish texnologiyasi dolzarb masalabo'lib qolaveradi.

Muammoli ta'lim talabalarda fikrlash, qaror qabul qilish, o'z fikrini asoslash qobiliyatini shakllantirish, ko'nikma, malakalarini samarali shakllantirishga yordam beradi. Zero, bilimlarni fikrlash, tahlil qilish asosida o'zlashtirish ularning mustahkam, puxta bo'lishini ta'minlaydi. Muammoli ta'lim jarayonida muayyan texnologiyalar qo'llaniladi.

Bu kabi texnologiyalar orasida muammoli bayon, muammoli ma'ruza, evristik suhbat, muammoli namoyish, izlanishga asoslangan amaliy mashg'ulot, ijodiy topshiriq, xayoliy muammoli tajriba, muammo farazlarni shakllantirish masalalarini muammoli echishning optimal variantlarini tanlash, muammoli vazifa, muammoli o'yin kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan o'rinli, maqsadli va izchil foydalanish ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, shu bilan birga talabalarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev Q.F., Bobomurodova N.J. Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari- B.: "Durdona nashriyoti" 2020.-85 bet.
2. Авлиёкулов Н.Х. Замоновий ўқитиш технологиялари. – Т.: 2001. – 69 б.
3. Авлиякулов Н.Х., Намозова Н. Муаммоли ўқитиш технологиялари.Т.: "Фан ва технология", 2008. – 80 б.
4. Н.Н.Азизхўжаева, Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат.– Т.: 2003; - 246 б.
5. Исмоилова З.Қ., Раупова Ш.А. Муаммоли таълим технологияларининг таълим жараёнидаги ўрни. – Т.: Ж. "Ирригация ва мелиорация", 2018, №3, 93-96 бетлар.
6. Ишмухамедов Р.Ж., Абдуқодиров А.А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог – ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Т.: "Истеъдод", 2008. – 180 б.
7. Махмутов М.И. Мактабда проблемали таълимни ташкил қилиш. – Т.: "Ўқитувчи", 1981 – 196 б
8. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
9. S.H.Sharipova. Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy – gumanitar fanlarni muammoli o'qitish texnologiyasi mag.diss.2021 yil
10. Абулова Дилсора Толиб қизи Ўқувчиларнинг мустақил фикрлашларида интерфаол методларнинг ўрни ва аҳамияти. «Тараққиёт тадқиқотлари: Илмий-амалий анжуманлар» мавзусидаги республика кўп тармокли илмий-амалий, масофавий конференция материаллари тўплами, 1-қисм, 15 январь 2023 йил. Тошкент
11. Умурова М. Ё. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2. – С. 24-26.



73	Og'abek Davlatov Nizomitdin o'g'li Shahzod Kamolov Umidjon o'g'li TURISTIK RESURLAR MOHIYATI	376-379
74	Feruza Dadajonova Shuxrat qizi TURIZM TARIXI	380-383
75	Fayzullo Raxmatullayev Talatillo o'g'li Yaxyojon Raximberdiyev Tojidinovich TURIZMDA MUZEYLARNING O'RNI	384-387
76	Dinora Abduljalilova Ravshan qizi Shukurbek Baxromov Baxrom o'g'li TURIZMGA KIRISH	388-392
77	Alisher Qurbanov Abdurashidovich Azizbek Abduxalilov Farxod o'g'li ZIYORAT TURIZMINING AHAMIYATI	393-396
78	Khilola Tuychiyeva Zokirjon kizi MASS REPRODUCTION OF PEST INSECTS AND FACTORS AFFECTING IT	297-404
79	Abdurashidova Kamola Turgunbaevna Abdukhakimov Fayzulla Kudratulla ugli Sevinch Chorshanbiyeva Akramovna THE POTENTIAL OF MACHINE LEARNING IN CYBERSECURITY	405-409
80	Dilsora Abulova Tolib qizi O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI MUAMMOLI O'QITISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	410-415